

INGLIZ TILINI O'QITISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING O'RNI

Haydarova Aziza Zikrullo qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*Ilmiy rahbar: **Mamanazarova Gulxayo Ilhomjonovna**

+998919612139

haydarovaaziza383@gmail.comMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 23.11.2025**Revised: 24.11.2025**Accepted: 25.11.2025*

KALIT SO'ZLAR:

*Differensial
yondashuv, vizual,
metod, kompetensiya,
kommunikativ,
individual
rivojlanish,
individual qobiliyatlar**Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida differensial yondashuvning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Differensial yondashuv orqali har bir talaba va o'quvchining bilim darajasi, individual qobiliyati va til o'rganishga qiziqishlariga mos o'quv usullari ishlab chiqiladi. Maqolada til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitishning afzalliklari, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish va differensial yondashuvning ta'lim sifatini oshirishga qanday hissa qo'shishi batafsil yoritilgan*

Ta'lim tizimi kundan kunga zamonaviylashib borayotgani bois til o'qitishda ham turli xil metodlar va yondashuvlardan foydalanilmoqda. Shu sababli, ingliz tilini differensial yondashuv metodi yordamida o'qitish orqali samarali natijaga erishish osonlashishi va tezlashishi olimlar tomonidan isbotlanmoqda. Ushbu yondashuv haqida so'z yuritar ekanmiz „Differensial yondashuv — nima ? ” – degan savol tug'ilishi tabiiy hol . Differensial yondashuv — bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini (bilim darajasi, qobiliyati, o'rganish sur'ati, qiziqishlari, ehtiyojlari va boshqalar) hisobga olib, ularga mos tarzda ta'lim berish usulidir. Oddiy qilib aytganda, bu yondashuv bir xil darsni barcha o'quvchilarga bir xil tarzda o'tmasdan, har bir o'quvchining imkoniyatiga qarab

moslashtirilgan ta'limni tashkil etish demakdir. Differensial yondashuvning asosiy afzalligi – ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, bu esa talabalarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi va ular orasida mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ushbu yondashuvning mazmun bo'yicha, jarayon bo'yicha, natija bo'yicha va muhit bo'yicha turlari mavjud bo'lib talaba va o'quvchilarga o'z qobiliyatlariga, maqsadlariga bog'liq ravishda til o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Differensial yondashuv bo'yicha ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud, quyida ulardan bir nechta namuna keltirib o'taman. Tomlinson, C. A. (2001). *Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners* Tomlinsonning ushbu asari differensial yondashuvlar bo'yicha asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Muallif ta'lim jarayonini talabalar ehtiyojlariga moslashtirish usullari, darslarni individuallashtirish va o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar beradi. Tomlinsonning fikricha, o'qituvchilar talabalar qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishi kerak, bu esa har bir talabaning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. Tomlinson yondashuvlarining ahamiyati shundaki, u darslarni qanday qilib o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha qimmatli uslublarni taqdim etadi. Heacox, D. (2012). *Differentiating Instruction in the Regular Classroom* Heacox asarida o'quv jarayonida differensial yondashuvlardan foydalanishning amaliy usullari va strategiyalarini keng yoritgan. Muallif, ayniqsa, sinfdagi o'qitish usullarini o'zgartirish orqali har bir talabaning individual o'quv ehtiyojlarini qanday qondirish mumkinligi haqida tushuntiradi. Heacox ta'lim jarayonida topshiriqlarni murakkabligi va uslubiga qarab talabalarga moslashni tavsiya qiladi. Ushbu yondashuv talabalarni o'z darajasiga mos ravishda o'qitish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes* Vygotsky asarida ta'lim jarayonida talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning "yaqin rivojlanish zonasi"ga ko'ra o'qitish tamoyillari yoritilgan. Vygotskyning tadqiqotlari differensial ta'lim uchun asos bo'ladi, chunki u har bir o'quvchining rivojlanish darajasini hisobga olish orqali ularning yanada yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu g'oya differensial yondashuvlarda qo'llanilib, talabalarni o'z darajasiga mos va qiziqarli o'quv faoliyatlariga jalb qilish uchun nazariy asos beradi. Ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi – bu talabalarni tilni og'zaki va yozma shakllarda kundalik va kasbiy faoliyatda samarali qo'llashga o'rgatishdir. Bunday yondashuv kommunikativ, differensial yondashuv deb

ataladi, bu til o'rganishni ma'lumot olish va o'z fikrini bildirish vositasi sifatida ko'radi. Chet tilini o'rganish talabani til kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan. Til kompetensiyasi deganda shaxsning til tizimi haqidagi bilimlari va til birliklarini real hayotiy vaziyatlarda amalda qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv darslarda talabalarning faol ishtirokini talab qiladi. Tilni o'rganish bu yerda passiv eslab qolish emas, balki faol va ongli ishtirok orqali amalga oshadi. Dars jarayonida o'qituvchi talabalarga til vositalarini o'rganish bilan birga ularni real muloqot vaziyatlarida qo'llash imkonini ham yaratadi. Shuning uchun o'qituvchilar ko'pincha o'quv mashg'ulotlarini interaktiv usullar asosida tashkil etadilar: rolli o'yinlar, munozaralar, guruhli ishlar va muammoli topshiriqlar bu usullardan ayrimlaridir. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes Vygotsky asarida ta'lim jarayonida talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning "yaqin rivojlanish zonasi"ga ko'ra o'qitish tamoyillari yoritiladi. Olimning ilmiy-tadqiqotlari differensial ta'lim uchun asos bo'ladi, chunki u har bir o'quvchining rivojlanish darajasini hisobga olish orqali ularning yanada yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu g'oya differensial yondashuvlarda qo'llanilib, talabalarni o'z darajasiga mos va qiziqarli o'quv faoliyatlariga jalb qilish uchun nazariy asos beradi. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga bog'liq bo'lgan holda dars jarayonida differensial yondashuv usulidan foydalanib ko'rildi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'tkazildi. Differensial yondashuv usulida Til aspektlari amaliyoti fanining bir parasi o'tildi va natijada 16ta talabada 16xil qobiliyat, turli xil qiziqishlar mavjudligi aniqlandi. Keyingi parada esa shu jihatlarni hisobga olgan holatda darsga tayyorlanib, turli vizual qo'llanmalar, video rolklar, qog'oz va elektron variantdagi testlar tayyorlandi, speaking debatlar tashkil etildi. Kuzatuv natijasi shuni ko'rsatdiki 80minut davomida talabalarning hammasi diqqatini to'liq ravishda darsga qaratdi. Oxirida ulardan dars haqidagi fikrlari so'ralganda javoblar ijobiy bo'ldi. Qisqa qilib aytganda, differensial ta'limning ilmiy asoslari o'qituvchilarni har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni yuqori o'quv natijalariga yetaklash uchun turli usullarni qo'llashga undaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning ta'limga oid nazariy va amaliy jihatlari ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitishda differensial yondashuvdan foydalanish ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabalar ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash va ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim darajasi, o'rganish sur'ati, qiziqishlari va qobiliyatlariga

mos tarzda o'quv materiallarini tanlash orqali samaradorlikni oshiradi. Ilmiy-tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, differensial yondashuv ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undash va ularning o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilari o'z amaliyotlarida differensial yondashuv tamoyillarini keng qo'llashlari tavsiya etiladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir talabaning maksimal o'quv salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ushbu maqolada keltirilgan ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida aytish mumkinki, differensial yondashuv nafaqat dars jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalar faoliyatini faollashtiradi va ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'limda Differensial Yondashuvlar, Talabalar Ehtiyojlariga Moslashtirilgan O'Qitish Usullari Fayzullayeva Dilnura Husan qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.14050044>
2. Tomlinson, C. A. (2001). The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. Alexandria, VA: ASCD. 2.
3. Heacox, D. (2012). Differentiating Instruction in the Regular Classroom: How to Reach and Teach All Learners, Grades 3–12. Minneapolis, MN: Free Spirit Publishing.
4. A differentiated approach to teaching English for specific purposes Natalia N. KONDAKOVA, Elena I. ZIMINA, Mayya Y. PROKHOROVA Derzhavin Tambov State University 33 Internatsionalnaya St., Tambov 392000, Russian Federation. ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9498-8923>, e-mail: nata-kondakova@yandex.ru
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press